

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2021



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

**MAXSUS SON
(2021-yil, dekabr)**

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

MUNDARIJA

Alijon HAMROEV. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students	7
Matlab TILAVOVA. Ta’lim jarayonida gender tenglik va farqlarni hisobga olishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari.....	13
G’ulom SAYFULLAYEV, M. S.SAFAROVA, I. S.TEMIROVA. Markaziy osiyolik allomalarining tabiat haqidagi asarlaridan boshlang‘ich sinf tabiiy fanlarni o‘qitishda foydalanish	18
Fayzullo QOSIMOV, Mayluda QOSIMOVA. Ikki sonning yig‘indisi (yoki ayirmasi) va karrali nisbatiga ko‘ra shu sonlarni topishga doir masalalar	20
Fayzullo QOSIMOV, Mayluda QOSIMOVA. Ko‘paytirish va bo‘lishga doir mashqlar tizimini tuzish bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun usuliy tavsiyalar.....	24
Hilola SAFAROVA, Nigora SAFAROVA. Navoiy jonga muhtoj ermas, ammo.....	28
Nigora ADIZOVA. Qiziqmachoqlarda hayot sabog‘ining o‘ziga xos talqini.....	30
Nigora ADIZOVA, Hilola XUDOYBERDIYEVA. “Qiziqmachoq” atamasining mohiyati va janriy xususiyatlari	33
Mohinur SAIDOVA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisinining masofaviy ta’limdan foydalanishining pedagogik va didaktik imkoniyatlari	38
Mohinur SAIDOVA, Niginabonu IDIYEVA. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida vaqt tushunchasi bilan tanishtirish	42
Nodira ADIZOVA. Toponimlar tarkibida topoasos, topoformant hamda indikator tushunchalari (Buxoro tumani misolida).....	47
Nodira ADIZOVA, Dilsora TOSHPO‘LATובה. Buxoro tumani toponimlarining tasnifi masalasi	49
Shoira BOBOYEVA. Metodikada ona tili ta’limini modellashtirishga innovatsion yondashuv	51
Халима АРИПОВА, Шоира БАБАЕВА, Наталья РОЗИКОВА. С.Н.Иванов – как поэт-переводчик восточной поэзии	58
Шоира БАБАЕВА, Анастасия АЛИМОВА. Влияние международного исследования pirls на развитие речи и грамотность чтения младшего школьника	64
Шоира БАБАЕВА, Насиба ФАЗЫЛОВА. Развитие речи младших школьников с использованием различных словарей	68
Mehrinish HAKIMOVA. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda matematik tasavvurlarni shallantirishda uzviylikni ta’minalashga doir metodik ta’mnot.....	72
Саида ГАФАРОВА, Феруза ХАЛИЛОВА. “Прокариотлар морфологияси ва хужайра тузилиши” мавзусини ўқитища педагогик технологиялардан фойдаланиш самарадорлиги	79
Феруза ХАЛИЛОВА, Шодия НУРМАМАТОВА, Нилуфар ОБЛОҚУЛОВА. Преподавание биологии в школе	86
Shoira QURBONOVA. Texnologiya darsi jarayonida talabalarning mehnat tarbiyasini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish	89
Gavhar SAIDOVA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uzunlik haqida tasavvurlarni shakllanritish, uzunliklarni o‘lchash malakalarini hosil qilish	92
Mashxura YULDASHEVA. Tibbiy pedagogik yo‘nalish talabalarida milliy an’analar asosida bag‘rikenglikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayonning mazmuni	94
Mashxura YULDASHEVA. Tibbiy pedagogik yo‘nalish talabalarida milliy an’analar asosida bag‘rikenglikni rivojlantirishning shakl, usul va metodlari	97
Yulduz Pulatova. Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons	101
Mahfuza SADULLOYEVA, Maxtobxon XAYRIYEVA. Maktab o‘quvchilari orasida deviant xulq-atvor sabablari, shakllari va korreksion ishlari	107
Adiba BAHRONOVA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashga tayyorlashda darsdan tashqari ish shakllari	110
Saodat QODIROVA. Qadimiylar maqollar	113
Dilshod DAVRONOV. Zamon bilan hamnafas yashagan alloma	115
Yulduz NUROVA. Etnografiya va etnografiya munosabati	118
Malika XAYDAROVA. Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari	122
Nodirabegim RAJABOVA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘quvchilarga figura yuzi tushunchasini o‘rgatishda tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish.....	125

Nodirabegim RAJABOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli	128
Yusufzoda Shabnam. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantrish	132
Mardon YARASHOV. Boshlang'ich ta'limning dars jarayonlariga raqamli texnologiyalarni tadbiq etish vositalari.....	135
Dilora SIDIQOVA. Masofaviy ta'lif sharoitida "matematika o'qitish metodikasi" fanini o'rgatishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning metodik asosi	138
O'g'iljon OLLOQOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sintaktik kompetensiyalarni takomillashitish..	142
Umida TOG'AYEVA. Loyihaviy ta'lif vositasida "ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirish yo'llari.....	146
Gavhar RUSTAMOVA. O'zbek xalq ertaklarida daraxtlar obrazi bilan bog'liq epik talqinlar	150
Feruza ABDULLAYEVA. Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish.....	154
Feruza ABDULLAYEVA. Ta'lif tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli.....	156
Dilnoza XAYRULLAYEVA. 4-sinf ona tili darslarida gap bo'laklarining o'qitilishi	159
Mohichehra IBROHIMOVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarini o'tishda "day game"dan foydalanish	163
Mahliyo HAYDARQULOVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarda axborot kompetentligini oshirishda inkorporatsiyadan foydalanishning o'RNI.....	166
Madina OZODOVA. Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari	170
Nigora RO'ZIYEVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ulush va kasr tushunchalariga doir masalalarni tushuntirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	172
Shahlo SAPAROVA. The classification of Elbek poems in 5 directions	175
"Pedagogik mahorat" jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari	178

4-SINF ONA TILI DARSLARIDA GAP BO‘LAKLARINING O‘QITILISHI

Maqolada 4-sinf ona tili darsligidagi gap, gap bo‘laklari, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar, gapda so‘zlearning o‘zaro bog‘lanishining o‘qitilishi, ayrim mashqlarning tahlili berilgan.

Kalit so‘zlar: gap, gap bo‘laklari, mashq, ijodiy mashq, bosh bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar, matn, ega, kesim.

В статье представлены предложение, части речи, начальная и второстепенная части учебника для 4 класса родного языка, обучение соотношению слов в предложении, анализ некоторых упражнений.

Ключевые слова: предложение, части речи, упражнение, творческое упражнение, основные части, второстепенные части, текст, притяжательное, причастие.

The article presents the sentence, parts of speech, primary and secondary parts of the textbook for 4th grade mother tongue, teaching the relationship of words in the sentence, the analysis of some exercises.

Key words: sentence, parts of speech, exercise, creative exercise, main parts, secondary parts, text, possessive, participle.

Kirish. O‘sib kelayotgan har bir yosh avlodning har biri o‘z oilasi, ota-onasining kelajagi, qolaversa, butun jamiyatning bir bo‘g‘ini bo‘lib ulg‘ayadi. Bunda unga oilasi, yashab turgan mahallasi, ta’lim oladigan mактабдаги устозлари yelkadosh bo‘lishadi. Har tomonlama yetuk va malakali kadr bo‘lib yetishi uchun bu yo‘lda qanchadan-qancha ustozlarning ko‘magi zarur bo‘ladi. Shunisi muhimki, boshlang‘ich sinfda ustozlaridan olgan bilimi, ma‘lumoti bilimlarining asosini, poydevorini tashkil qiladi. Dunyoning ko‘plab tillarini bilishni hayot taqozo qilib turgan bir vaqtida, o‘z ona tilini chuqur bilish, uning imkoniyatlaridan foydalanish, buyuk tarixga ega bo‘lgan har bir o‘zbek farzandining burchi hisoblanadi. Shu sababdan maktablarimizda ona tili ta’limiga berilayotgan e’tibor ham kuchaytirilgan. Xalqaro baholash dasturlarida ham ona tilini yaxshi o‘rganmagan o‘quvchi, uning serqirra va ma’nodorligini anglamas ekan bu topshiriqlarda qiynalishi tabiiydir.

Asosiy qism. O‘quvchilarning o‘zbek tilini chuqur o‘rganishda 4-sinfda o‘rganadigan lingvistik bilimi muhim. 4-sinf “Ona tili” darsligi Ra‘no Ikromova, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Dilorom Shodmonqulovalar hammuallifligida tayyorlangan bo‘lib, 2020-yil Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyotidaaa nashr qilingan. Hajmi 161 betni tashkil qiladi. Ushbu darslik 13 ta mavzu, 379 ta mashqdan iborat bo‘lib, o‘quv yili davomida gap, gap bo‘laklari, gapning ikkinchi darajali bo‘laklari mavzulari o‘tiladi. 317-mashqdan 340-mashqqacha gap bo‘laklari va uyushiq bo‘lakli gaplar mavzulari asosida topshiriqlar berilgan. Gap bo‘laklarini o‘rgatish jarayonida hozirgi zamonga mos holda, xalqaro baholash dasturlari talablari doirasida ish olib borish lozim. Chunki O‘zbekiston shu yili, ya’ni 2021-yilda yuqorida dastur asosida o‘quvchilar bilimini baholash bo‘yicha ushbu dastur ishtirokchisi bo‘ladi. Ushbu baholash dasturi 4-sinflarga ham PIRLS dasturi (PROGRESS IN INTERNATIONAL READING LITERACY STUDY - boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matnni o‘qish va tushunish savodxonligi sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi) bo‘yicha boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan matnni o‘qish va tushunish darajalarini solishtirish imkonini beradi. Ilk bora 2001-yilda o‘tkazilgan (35 mamlakat) tadqiqot har 5 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Shundan so‘ng bu dasturning ishtirokchi mamlakatlari soni oshib borgan. 2006-yilda 40 mamlakat, 2011-yilda 45 mamlakat, 2016-yilda 50 mamlakat ishtirok etgan. Tadqiqotning doimiy ishtirok etuvchi davlatlarida shuni sezish mumkinki, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bo‘yicha natijalarini yildan yilga yaxshilanmoqda.

Bugungi kunda bizning mamlakatimizda ham o‘qish savodxonligiga katta e’tibor berilayotganligi bevosita ona tili darslarining ham sifatli hamda zamонавиу педагогик texnologiyalardan foydalangan holda va ona tili bilan o‘qish fani integratsiyalashgan holda o‘tilayotganligi xalqaro tadqiqotda yaxshi natijalar ko‘rsatishiga muhim omil bo‘lib xizmat qilishi kerak, albatta. Matn mazmunini qayta hikoya qilishda uning ayrim so‘zlarini eslab qolish muhim ahamiyatga ega. Bunda tilimizning yanada ma’nodorligi, gaplardagi bosh bo‘laklar hamda ikkinchi darajali bo‘laklarning qaytarzda qo‘llanganini bilish uchun ular haqida biroz bo‘lsa-da ma‘lumotga ega bo‘lishi lozim. “Gap bo‘laklari” bo‘limidagi mavzularga yanada ko‘proq soat ajratib, ikkinchi darajali bo‘laklarning turlarini ham aytib o‘tish lozimligini, qanday kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishiga qarab, qaysi so‘roqlarga javob bo‘lishiga qarab ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlash lozimligini taklif bildirmoqchiman. Chunki 4-sinf o‘quvchisi gap bo‘laklari mavzusidan so‘ng, uyushiq

bo'lakli gaplar mavzusini o'rganadi. Uyushiq bosh bo'laklar, ya'ni ega va kesimning uyushib kelishi haqida ma'lumot biroz to'liq o'rganiladi. Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi bo'laklar uyushganda ikkinchi darajali bo'laklar uyushgan, deyiladi xolos. Ikkinci darajali bo'laklarning nomlanishini, so'roqlarini ham aytib o'tish va darslikka ham qoida asosida kiritish lozim deb o'ylayman. Chunki o'quvchilar ko'proq qoida asosida o'rgansa, so'ng qoidani mashqlar asosida tahlil qilsa, shunga asosan o'zi ham hajman kichik bo'lsada, ijodiy matnlar yaratib borsa, ikkinchi darajali bo'laklar, ya'ni aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol haqida ham yoshiga mos holda ma'lumotga ega bo'lib borsa fikrlash qobiliyatini yana ham rivojlanib boradi deb o'ylayman hamda xalqaro baholash dasturlari topshiriqlariga tayyor bo'lib boradi. Dasturlarning test va topshiriqlari o'quvchilar o'qilgan matnning har bir so'ziga diqqat bilan e'tibor berishni va eslab qolish lozimligini, har qanaqasiga savollar qo'yilganda ham to'g'ri javobni topa olish qobiliyatini namoyon qilishni talab etadi. O'quvchi ona tilidan so'z turkumlari hamda gap bo'laklari haqida tushunchaga ega bo'lsagina, qahramonlarning qanday esda qolarli sifati orqali aniqlashni, izohlashda qanday bo'laklar ishlatalganini, harakat qayerda va qachon sodir bo'lganligini tezda xotirlaydi hamda topshiriqni ijobiy yecha oladi, o'ylashimcha. Bundan tashqari, pedagogik faoliyatim davomida bir qancha topshiriqlar tizimini topib, ulardan foydalanib bir qancha yaxshi natijalarga erishganman. Bularidan amaliy mashg'ulotlar paytida, bo'lim yuzasidan takrorlash darslarida foydalanilsa o'quvchilar bilimlari yanada mustahkamlanadi, degan umiddaman.

Shahar, daraxt, o't, baliq, badiiy asar nomlarini aralash keltirilgan so'zlar guruhi ichidan ajratib aytish yoki yozishga yo'naltirilgan mantiqiy mashqlar ham yaxshi natija berishi mumkin. Masalan, "beda", "laqqa", "she'r", "ertak", "o'rik", "chinor", "sazan" va hokazo.

"U kim? Bu nima?" didaktik o'yin

Stol ustiga ber nechta predmetlar qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchilarga shu predmet haqida fikrlarni bildiradi o'quvchilar bu predmet nomini topishlari kerak bo'ladi.

Masalan:

U juda xushbo'y, uni tug'ilgan kun, bayramlarda sovg'a qilishadi (Gul).

Ta'limiy jihatdan bu metodlar nazariy bilim, amaliy ko'nikmalarni mustaqil egallashga, ularni takrorlash, mustahkamlash va chuqurlashtirishga yordam beradi.

Tarbiyaviy ma'noda ular shaxsning mustaqillik, mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik kabi xislatlarini tarbiyalaydi.

Umuman, o'quvchilar predmet bildirgan so'zlarni boshqa so'zlar ichidan ajrata olishlari uchun ularning diqqat-e'tibori tevarak-atrofga qaratiladi. Ko'z bilan ko'rib turgan narsalarni aytish, ularga so'roq berish bilan predmet, narsa, shaxs tushunchalarini bildiradigan so'zlarni bilib oladilar. Masalan, 344-mashq (142-bet) matni ikki ustunga yozilgan bo'lib, chap va o'ng tomondagi gaplarni solishtirish, qaysi ustunda alohida gaplar, qaysi ustunda matn berilganini aniqlash va matnga sarlavha topish topshirig'i havola etiladi.

O'quvchilar mashq bilan tanishtirilgach, "Chap tomondagi nima uchun matn sanalmaydi?" (Chunki gaplar mazmunan bir-biri bilan bog'lanmagan. Alohida-alohida xabar bildiryapti), "Nima uchun o'ng tomondagi gaplarni matn deb hisoblaysiz?" (Chunki gaplar mazmunan o'zaro bog'langan va ular bir hikoyachani tashkil qiladi) kabi savollari bilan murojaat qilinsa, masalaning mohiyatiga teranroq nazar tashlashga majbur bo'ladi. Xulosa chiqariladi: Matn - bu mazmun jihatdan bog'langan gaplardir.

Darslikdagi yana bir mashqda ham shunga o'xshash berilgan so'zlarni shaxslar, narsa nomlari, tabiat hodisalari nomlari shaklida alohida-alohida qatorga yozish so'ralgan.

Unga qo'shimcha tarzda "O'zingiz ham shaxs, narsa, tabiat hodisalari nomlaridan topib qatorlarni davom ettiring" topshirig'i berilsa, o'quvchilar "shaxs nomlari" qatorini "ota-on", "kosmonavt", "shofyor", "daftar", "ruchka", "parta", "mashina"; "Tabiat hodisalari nomlari" qatorini "yong'in", "zilzila", "vulqon", "toshqin" kabi so'zlar bilan davom ettirishi mumkin. Vaqt imkoniyatiga qarab topshiriqni og'zaki bajartirish ham yaxshi samara beradi.

O'qituvchi ot so'z turkumiga oid so'zlarni guruhlashtirib yozish shartini "Kim ko'p so'z topib yozadi?" topshirig'i bilan davom ettirsa, o'ziga xos musobaqa vaziyati yuzaga keladi. Musobaqa esa ijodiy izlanishga, tashabbuskorlikka da'vat etadi.

Muhokamalar va natijalar. Darslikdagi 339-, 335-, 338-, 345-, 348-, 351-, 354-mashqlarda ham o'quvchilarni ijodiy fikrlashga qaratilgan topshiriqlar berilgan. Ayniqsa, shaxs, narsa nomlarini bildiruvchi so'zlar (ot) yuzasidan keltirilgan mashqlarda matnlar tarkibi bir turdag'i narsa, shaxs nomlarining kiritilishi o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishlariga xizmat qiladi. Masalan: "sichqon", "mushuk", "xo'roz", "kuchuk", "tulki", "o'rdak", "g'oz", "maymun", "yo'lbars", "sher" (118-mashq); "charos", "daroyi", "husayni" (145-mashq); "quyosh", "oy", "yulduz", "daryo", "dengiz", "qir", "adir", "o'rmon", "osmon" (197-mashq) va boshqalar.

Lekin darslikda keltirilgan barcha topshiriqlar ham o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlari darajasida emas. Masalan, 19-mashqda “Matnni o‘qing va qaytadan hikoya qiling. Hikoyaga sarlavha qo‘yib, tushunganlaringizni yozing” deyilganda edi o‘quvchi o‘qib o‘zlashtirganlarini yozish orqali mustaqil faoliyatga o‘rganar edi.

3-sinf “Ona tili” darsligida 2-sinf darsligida o‘rganilgan nazariy tushunchalarning aynan takrorlangan.

3-sinf “Ona tili” darsligining o‘zida ketma-ket takrorlarga yo‘l qo‘yilgan. Solishtiring: “Matn - bu mazmun jihatidan bog‘langan gaplardir” (5-bet) “Matnda gaplar mazmun jihatidan bog‘lanadi” (7-bet).

Nazariy tushunchalarning shu xilda takrorlanishi o‘quvchilarning ijodiy izlanishini chegaralab qo‘yishini unutmasligimiz lozim.

4-sinf uchun 2020-yilda nashr etilgan “Ona tili” darsligiga nazar tashlansa undagi mashq topshiriqlari oldingi sinflarda egallangan bilimlarni eslash, shu asosida vazifalarini mustaqil bajarish, tegishli xulosalar chiqara olishga qaratilganini ta‘kidlash mumkin. Darslikda o‘quvchilarning tildan amaliy foydalana olishlariga, og‘zaki va yozma nutqning savodli bo‘lishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan topshiriqlarga alohida e’tibor berilgan.

“Tug‘ro - gerb”

“qopqa” - darvoza (3-bet).

“shon - dovrug‘, dong, shuhrat”

“nishon - belgi, iz”

“naql - hikmatli gap” (5-bet)

“Iqbol - baxtli taqdir, baxt, omad” va hokazo.

“Olqish - yaxshilik tilash so‘zları”

Ba’zi o‘rinlarda so‘zlarining ma’nosini izohlashga yo‘naltirilgan topshiriqlarning berilishi o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, 2-mashqda “samo”, 3-mashqda “horg‘in”, 4-mashqda “kulsin”, 7-mashqda “piyoda” so‘zlarining ma’nodoshlarini izlash natijasida topilgan so‘zlar, shubhasiz, o‘quvchilarning lug‘atini boyitadi, dunyoqarashini kengaytiradi.

19-mashqda “o‘qyidi”, “keltiradi”, “topadi”, “so‘zlaydi” so‘zlarining qanday ma’noda qo‘llanishi ustida izlanish natijasida tilning ichki qatlamlariga chuqurroq nazar tashlash imkonini tug‘iladi.

Darslikda so‘z ma’nosini izohlashdan tashqari, so‘zlarni gapda o‘rinli qo‘llashga doir berilgan topshiriqlar o‘quvchilar nutqini boyitadi hamda muammoni hal etish orqali mastaqil fikrlashga ham o‘rgata boradi.

Lug‘at ustida ishslashning yana bir usuli o‘quvchidan qo‘srimcha adabiyotlarni o‘qishni talab etadi. Masalan, 14-mashq (10-bet)da 6 turdag‘i qovun rasmi berilgan bo‘lib, O‘zbekistonda qovunning necha xil turi bor? Javobingizni yozing deyilgan. O‘quvchiga bu mashq sharti bir kun oldin aytib yuboriladi. U ota-onasi, bobo-buvilaridan javob izlaydi (O‘zbekistonda 15 dan ortiq qovun turi mavjud: qizilurug‘, bosvoldi, doniyor, gurvak, qoraqosh va hokazo).

104-mashq (46-bet)da qushlar, 112-mashq (50-bet)da gullar nomini aniqlab yozish, shuningdek, 3-mashq (6-bet)da “Gapni qanday harf bilan boshlaysiz?”, 7-mashq (7-bet)da “Gapning oxiriga qaysi tinish belgilari qo‘yilgan? Nima uchun?” tarzidagi grammatik topshiriqlar ham mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan.

22-mashq (14-bet)da A.Akbarning “Insholardan ko‘chirma” she’ri keltirilgan. She’rda bolalarning paxtani turli narsalarga o‘xshatishi xususida so‘z boradi. Mashq shartidagi “Siz paxtani nimaga o‘xshatgingiz keladi? Bitta gap bilan yozing” topshirig‘i o‘quvchini jiddiy izlanishga da’vat etadi

Ma’lumki, grammatik tushunchalar muammoli izlanish metodi asosida shakllantirilsa, uzoq vaqt esda saqlanadi. Har bir mavzuni tushuntirishda o‘quvchilar matnni o‘qish, yozish va tahlil qilish orqali o‘z fikr-mulohazalarini aytishi kerak. Ularning fikr-mulohazalari darslikdagi nazariy tushunchalar yoki o‘qituvchining izohi yordamida tasdiqlanadi. Masalan, 217-mashq (90-bet)ni bajarish jarayonida o‘quvchi sifat so‘z turkumiga doir so‘zlarining yozilishini kuzatadi, tahlil qiladi va “Belgini kuchaytirib va ozaytirib ko‘rsatadigan sifatlar qanday yoziladi?” savoliga javob qaytarish uchun izlanishga majbur bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda tilning fonetikasi ham, leksika, morfologiya va sintaksis ham gap, matn asosida o‘zlashtiriladi. So‘zning ifodalaydigan ma’nosini ham gap tarkibida oydinlashadi. So‘z turkumlarining tildagi roli va vazifasi ham gap tarkibida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan boshlang‘ich sinflarda har bir til hodisasi gap va matn tarkibida o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

2016-yil nashr qilingan 4-sinf darsligidagi mashqqa e’tiborimizni qaratsak: 41-mashq. (4) Har ikki ustunda berilgan gaplarni taqqoslang.

Men she’rni o‘qidim.	Men she’rni o‘qidim va yodladim.
----------------------	----------------------------------

 Men she’rni o‘qidim va yodladim. |

Darslikdagi topshiriq: bir xil so‘roqqa javob bo‘lgan so‘zlarni toping. Ularning gapdag‘i vazifasini aniqlang.

Qaysi ustunda berilgan gaplarda fikr ixcham ifodalangan?

Ushbu mashqda shu kabi savollarga javob topish jarayonida quyidagi xulosa, ya’ni qoida kelib chiqishini o‘quvchilarning o‘zлari ham sezishadi va o‘qituvchi yordamida yana misollar keltirilib, qoida o‘quvchilarga o‘rgatiladi.

Gapda kesimlar uyushib kelishi mumkin.

Kesim uyushgan ushbu gapda qolgan bo‘laklarni ham uyuştirib, gapni boshqacha usulda ham tahlil qilish mumkin. Masalan to‘ldiruvchini uyuştirsak: Men she’rni, maqolni va topishmoqlarni o‘qidim va yodladim. O‘z-o‘zidan qoida kelib chiqadi.

Gapda ikkinchi darajali bo‘laklar ham uyushib kelishi mumkin.

Uyushiq bo‘laklar mavzusida keltirilgan 47-mashq shunday berilgan.

47-mashq. O‘qing. Hikmatlarning ma’nosini tushuntiring.

1. Ota-onalarning izzatini va hurmatini o‘rniga qo‘ymoq har bir o‘g‘il va qizning insoniy burchidir.
2. Mard to‘g‘ri va haq gapni gapiradi. (Rahimjon Usmonov)

Ko‘chiring. So‘roqlar yordamida uyushgan bo‘laklarni topib, tagiga tegishlicha chizing. Ushbu mashqda garchi ikkita gap bo‘lsa ham PIRLS talabi bo‘yicha topshiriqlar berilgan deb o‘ylayman, chunki o‘quvchi gaplarni avval ma’nosini tushunib, izohlab so‘ng uyushiq bo‘lakni topib, tegishlicha chizishi lozim. Shunga o‘xhash mashqlar ko‘proq berilsa va ona tili darslarida faqat yozish, belgilash emas, o‘qituvchi mashqlar mazmuni jihatdan ham ko‘proq yondashib borsa, tushunilishi murakkab bo‘lgan so‘zlarni izohlash uchun lug‘at ishlari olib borsa o‘quvchining fikrlash darajasi ham rivojlanib, ta’lim sohasi rivojlanib borgan va xalqaro baholash dasturlarining doimiy a’zosi bo‘lib, yuqori o‘rnlarni egallab kelayotgan davlatlar qatoriga qo‘shiladi deb o‘ylayman.

Xulosa. Ona tili darslarini o‘qitish jarayonida pedagogdan har tomonlama kuchli bilim va ijodkorlik, qobiliyat bo‘lishi talab etiladi. O‘qituvchining ham bilimi, ham ijodkorlik qobiliyati yuksak bo‘lsagina hozirgi zamon talabi darajasidagi yosh avlodga bilim bera oladi. O‘qituvchining ijodkorlik qobiliyati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmay, o‘z ustida ko‘proq ishlashi, izchil o‘qib o‘rganishi orqali shakllanadi. Chunki kelajak - yoshlarniki. Zamonaviy bilim va mantiqiy fikrlash qobiliyati yuqori bo‘lgan yosh avlodgina kelajakda Vatan ravnaqiga hissa qo‘shib, jahon yoshlari bilan raqobatlasha oladigan kadr bo‘lib yetishadi.

Adabiyotlar

1. Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinf darsligi). –T.: “O‘qituvchi”, 2020. -160 bet.
2. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Yo‘ldosheva Sh. Ona tili (3-sinf darsligi). –T.: “O‘qituvchi”, 2019. -152 bet.
3. Olloqova M. O. Intensive education and linguistic competence in mother tongue //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 1. – C. 580-587.
4. Olloqova O. M. ONA TILI DARSLARIDA INTENSIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1025-1029.
5. Mamanazarovna O. U., Gulnoza M. USE OF DIDACTIC GAMES IN MOTHER TONGUE LESSONS. – 2021.
6. OLLOQOVA O. ONA TILI TA’LIMIDA INTENSIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 1. – №. 1.

[7. www.markaz.tdi.uz](http://www.markaz.tdi.uz)

8. uzedu.uz